

Elbek Giyozov tomonidan tayyorlandi

DASTURLASH NIMA?!



DASTURLASH BU...

- **Dasturlash** — kompyuterlar va boshqa mikroprotsessori elektron mashinalar uchun **dasturlar** tuzish, sinash va o'zgartirish jarayonidan iborat. Odatda **dasturlash** yuqori saviyali **dasturlash** tillari (PHP, Java, JavaScript C++, Python) vositasida amalga oshiriladi. Bu **dasturlash** tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi.
- Dasturlash yoki kod yozish – bu kompyuterga ba'zi operatsiyalarni qanday bajarishni buyurishdir. Agar siz oldin hech kod yozmagan bo'lsangiz, ehtimol mavjud ilovalardagi narsalarni bosib kompyuter bilan muloqot qilgan bo'lsangiz kerak. Aslida, bu ilovalar komputerga ilovani qanday ko'rsatishni, ma'lumotlarni qayerda saqlash va olib chiqib berishni, hamda siz sichqonchani bosganinizda qanday javob qaytarishni aytadigan kodlardan tashkil topgan.

DASTURCHI BO'LISH UCHUN...

- Professional dasturchi bolish uchun birinchi navbatda sizga:
 - Sabr
 - Qunt
 - Diqqat
 - Miyya (eng asosiysi ☺)

DASTURLASH UCHUN...

- Dasturlash uchun sizga ushbu narsalar juda zarurdir!
 - Kompyuter
 - Internet
 - IDE
 - Dasturlash uskunlari (bajaruvchi/aks ettiruvchi)

DASTURLASH YO'NALISHLARI

- Mobil dasturlash – yani Dunyo axolisining ko'p qismi foydalanib kelayotgan smartfonlarga ilovalar yaratish yani mobil qurilmalar uchun app lar yasash. Mobil dasturlash uchun kerakli Dasturlash tillarini aytadigan bo'lsak ,Bular Java, Kotlin, Swift(iOS mobil qurilmalari uchun) va C++.
- Desktop dasturlash – yani Kompyuterga ilova yasash bunga Telegram Desktop ni misol qilib olish mumkin . Albatta, buni Desktop dasturchi ishlab chiqqan. Desktop dasturchisi Java , Python , C++ va C# dasturlash tillarida dastur yaratadi.
- Web dasturlash
 - Front-End dasturlash – Web dasturlashning birinchi qismidir ikkinchi qismini keyinroq ko'rib chiqamiz. Front End saytlarning tashqi ko'rinishini dasturlash yani saytning Interfeysi kodlash orqali chizishdir. HTML, CSS va JavaScript Front End dasturlash tillari hisoblanadi.
 - Back End dasturlash – Boya aytib o'tgan Web dasturlashning ikkinchi qismi deya ayta olamiz yani saytlarning ichki funksiyalarini yozishdir. Chuqurroq kiradigan bo'lsak Front End biron bir button(tugma) chizsa Back End o'sha tugmani bosgandan keyin qanday funkiya bajarilishiga javobgardir. Back End dasturchi esa Java, Python, C# kabi dasturlash tillarini bilishi lozim.



Elbek Giyozoi

FrontEnd Developer

FRONTEND DASTURCHI KIM?

- Frontend dasturchi UX/UI dizayner tomonidan chizib berilgan sayt maketlarini brauzerda turli o'lchamli ekranli uskunalarda qulay, tez va chiroyli ochilishini ta'minlovchi mutaxassis hisoblanadi. Frontend dasturchi yangiliklar sayti, blog, internet do'kon, kompaniyaning ishlarini avtomatlashtiruvchi platformalar va shu kabi ommabop veb ilovalar tuzishda qatnashishadi. Sodda saytlardan tashqari brauzerda ishlashi kerak bo'lgan interfaol sahifalar, o'yin tuzish uchun ham frontend dasturlashning xos sohasidagi mutaxassislar mehnat qilishadi. Frontend dasturchi odatda veb dasturchilar jamoasi bilan birqalikda ishlaydi. Jamoada loyiha boshqaruvchisi, UX/UI dizayner, backend dasturchi, quality assurance (QA) bo'yicha mutaxassis va frontend dasturchi birga ishlashadi.



- Frontend dasturlashda HTML va CSS texnologiyalari, JavaScript dasturlash tili va shularning atrofidagi dasturchilar uchun qulaylik yaratib beruvchi instrumentlardan foydalaniladi.

Har bir loyihada sayt maketlari detallarigacha to'liq berilmagani uchun frontend dasturchi har bir loyihasini tuzish davomida tajriba orttirib, shu kabi kamroq detallar berilgan holatlarda improvizatsiya qilishga tayyor bo'lishi kerak.

KURSDA NIMALARNI O'RGANAMIZ?

- Asosiy
 - HTML
 - CSS
 - JS
- Yordamchi
 - Bootstrap
 - SASS
 - jQuery
 - React.js
 - Wordpress





E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT

Elbek Giyozov tomonidan tayyorlandi
2022-yil 12-aprel